

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
Xorijiy tillar fakulteti

Ingliz tili grammatikasi kafedrası

Shukurjonova Zebogul Nodirjon qizi
(409-guruh)

**INGLIZ TILIDA “EM-”PREFIKSLI YASAMA LEKSEMALAR VA
ULARNING O`ZBEK TILIDAGI MUQOBILLARI QIYOSIY TAHLILI VA
LINGVODIDAKTIKA MASALALARI**

5111400- “Xorijiy tillar va adabiyoti”
(Ingliz tili va adabiyoti) ta'lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr akademik darajasini
olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari: O`qituvchi J.B.Qoraboyev

Andijon - 2016 yil

Bitiruv malakaviy ish ingliz tili grammatikasi va til amaliyoti kafedrasining
2016 yil ____ may ____ sonli bayonnomasi bilan tasdiqlandi va himoyaga tavsiya
etildi.

Fakultet dekani: _____ M.A.Abduvaliyev

Kafedra mudiri: _____ katta o`qituvchi J.B.Qoraboyev

MUNDARIJA

KIRISH	4
--------------	---

BIRINCHI BOB. HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA LEKSEMALAR NAZARIYASI

1.1 Hozirgi zamon tilshunosligida leksemalar nazariyasi.....	12
1.2 Hozirgi zamon tilshunosligida prefiksli yasama leksemalar nazariyasi.....	25

IKKINCHI BOB. INGLIZ TILIDA “EM-” PREFIKSLI YASAMA LEKSEMALAR VA ULARNING O‘ZBEK TILIDAGI MUQOBILLARI QIYOSIY TAHLILI

2.1 Ingliz tilida “em-” prefiksli yasama leksemalar va ularning o‘zbek tilidagi muqobillari qiyosiy tahlili	34
2.2 Ingliz tilida “em-” prefiksli yasama leksemalarni o‘zbek tilidagi o‘xshash va noo‘xshash jihatlari.....	43

UCHINCHI BOB. INGLIZ TILIDA “EM-”PREFIKSLI YASAMA LEKSEMALARNING LINGVODIDAKTIKA MASALALARI

3.1 Ingliz tilida “em-” prefiksli yasama leksemalarning lingvodidaktika masalalalari.....	45
3.2 Ingliz tilidagi “em-” prefiksli yasama leksemalarni o‘qitish bo‘yicha mashqlar tizimi	52

XULOSA	57
--------------	----

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	59
---------------------------------	----

KIRISH

Davlatimiz o'z mustaqiligiga erishgach, barcha jabhalarda jumladan, ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy, ilm – fan jabhalarida sezilarli ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. O'tgan qisqa vaqt mobaynida jonajon yurtimiz jahon hamjamiyati o'rtasida o'z o'rniga, o'z salohiyatiga erishdi. Bunday ulkan muvaffaqiyatlarga erishish oson kechmadi. Albatta, bunday ulkan natijalar qo'lga kiritishda asrlar osha jahon madaniyati va ma'rifat beshigi bo'lib kelayotgan yurtimizning boy tarixi madaniyatining ham xizmati kattadir. Zaxmatkash xalqimizning say'i harakatlari ham bizga ma'lum. [1,66].

Respublikamizda barcha sohalar kabi ta'lim sohalarida ham bir muncha yutuqlarga erishildi. Ta'lim sohalarida olib borilayotgan chuqur islohotlar natijasida ta'lim jarayoni tubdan o'zgardi. Ta'lim yo'nalishini yaxshilash natijasida xorijiy davlatlar bilan yoshlarning bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berildi. Komil insonni tarbiyalash eng yorqin orzusi bo'lib kelgan insonlar azaldan ma'rifatga, madaniyatga, go'zal axloqqa mansub bo'lgan yurtlarning donishmandlari, mo'tabar ziyolilari, hukumdorlari hisoblanganlar. Barkamol avlodni tarbiyalash orzusiga o'z tariximizdan juda ko'p dalillarni keltirishimiz mumkin. Avvalambor, mamlakatimizda yashab ijod etgan allomalarimiz Al-Farobiy, Imom al-Buxoriy, Axmad Yassaviy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy, Furqat, Abdulla Avloniy va yana xatto biz sanog'ini ham aniq bilmagan buyuk olimlar asarlari faqat ezgulikka, ilm va ma'rifatga yetaklaydi.

Barchamiz xabardormizki, bu yil prezidentimiz tomonidan 2016-yil **“Sog'lom ona va bola yili”** deb e'lon qilindi. Ushbu qabul qilingan qaror bo'yicha yurtimizda keksa yoshdagi barcha qariyalarni yanada qadrlash, ularga g'amxo'rlik qilish hamda yanada katta e'tibor qaratish ushbu yil davlat dasturining asosiga aylandi.

Hozirda bizning Andijon Davlat Universitetimizda ham ko'plab professor ustozlarimiz faoliyat ko'rsatishmoqda. Bulardan G'.M.Hoshimov,

M.E.Umarxo'jayev, SH. S.Alimov, S.R.Raximov kabi ustozlarimizning mashaqqatli mehnatlari, bizga berayotgan bilimlari, biz bo'lajak yosh pedagoglarga katta yutuqlarga erishishimizga yordam beradi. Biz ana shunday ustozlar qo'lida ta'lim olayotganimizdan faxrlanamiz va cheksiz minnatdorchilik bildiramiz.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik hamda muloqotni rivojlemrirlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 12-dekabrdagi *"Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"*gi Qarori qabul qilindi. Unga muvofiq "2013-2014 o'quv yilidan boshlab Respublikaning barcha hududlarida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanishi hamda oliy o'quv yurtlarida ayrim maxsus fanlarni, xususan texnika va xalqaro mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish chet tillarida olib boriladi." [2;7] Shuningdek, "Ziyonet" tarmog'i orqali ta'lim muassasalarining xalqaro ta'lim va bilim olish manbalariga kirish imkoniyatlarini sezilarli orttirish, uning resurs markazini multimediya resurslari, shaxsiy kompyuterlar va mobil uskunalar uchun ilovalar bilan boyitish, shuningdek ingliz tilida o'quv va badiiy adabiyotlar, ixtisoslashtirilgan rasmlar bilan bezatilgan gazetalar va jurnallarni chop etish, ularga maxsus ruknlar hamda ilovalarni tashkil qilish kabi bandlar qarorda o'z aksini topgan. "Ilm-fan salohiyati bu – xalqning, Vatanning ulkan boyligi, kelajak poydevoridir. Uni rivojlemrirlashda davlat imkoni bo'lgan hamma ishni qiladi, hech narsani ayamaydi."

Iqtisodiy muammolar ertami-kechmi hal etiladi, lekin ilmiy boyligini qadrlamagan, uning taraqqiyoti uchun qayg`urmagan davlatning kelajagi bo`lmaydi. Buni biz doimo yodda tutmog`imiz shart” [1;6].

Respublikamiz Prezidentining bu fikrlaridan davlatimiz hududida ilm-fanni rivojletrish, uning istiqbolini belgilashga katta e`tibor berish zarurligini anglash mumkin. Istiqbolga erishgan respublikamizda ma`naviyat, madaniyat, ilm-fan, texnika, maorifni yuksaltirishga katta ahamiyat berilayotgani sezilib turibdi.

“XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo`ladi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqazosi deb emas, balki butun sayyoramiz ko`lamida sobitqadamlik, barqarorlikning omili deb hisoblamoq zarur”, - degan edi yurtboshimiz I.A. Karimov [3;298].

O`zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlari keng quloq yozgan bir paytda chet tillarini o`rganish va o`rgatish o`ta zaruriy ehtiyojga aylandi. Ushbu masalaning muhimligini alohida uqtirib, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: “Hozirgi paytda xorijiy tillarni o`rganish va o`rgatish yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta bejiz emas. Butun jahon hamjamiyatiga o`ziga munosib o`rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o`z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning xojati yo`qdir”. [1,87].

Xorijiy tillarga o`rgatish borasida juda ko`p xilma-xil tajriba, kuzatish va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo`lib, qanday usul va uslubdan foydalanilmasin, baribir u bilim oluvchilar bilan til amaliy ko`nikma va malakalarini mashq qilish va matn bilan ishlashga borib taqaladi. Amaliy mashq qilmay, matn ishlatmay turib so`z o`rgatish mumkin emas. Atrofda xorijiy til andozalari, namunalari ko`p uchramaydigan muhitda matndan tarjima usuli bilan xorijiy til asoslarini hosil qilib olish ham o`ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko`zga ko`ringan Amerika tilshunos olimlari R.Lada hamda Ch.Frizlarning fikricha, ona tilidan xorijiy so`z ma`nolarini va grammatik hodisalarini ochib berish vositasidan til materiallarining izchilligini ta`minlash usuli sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir [2;235].

Albatta, xorijiy tilga o`rgatishning juda ko`p samarali va maqbul usullari mavjud bo`lib, ular orasida og`zaki nutqni rivojlemrishi, uning mazmunini boyitish va o`stirishga qaratilgan hilma-hil sohalarni qamrab oladigan matnlar tizimining tipologik ahamiyati kattadir. Zamonaviy til o`rgatish usullarida ona tilidan foydalanish u yoki bu darajada olib boriladi. Xorijiy til materiallarini ona tiliga, ona tili materiallarini esa xorijiy tilga tarjima qilish jarayonida tafakkur qobiliyati o`sadi, bir oyatning o`zida aql, tafakkur, hayol, xotira va so`z, bilish qobiliyati rivojlemriladi, chunki aytilgan fikrni chuqur tushunishgina emas, balki o`sha fikrni o`z ona tilida mukammal va to`g`ri ifodalay bilish ko`nikmalari ham talab etiladi. Bunga esa faqat ikkala – o`zbek va xorijiy til materiallarini lingvo-tipologik jihatdan chuqur tahlil qilish orqaligina erishish mumkin. Shuning uchun ham ushbu lingvo-tipologik uslub umumiy tilshunoslikda bebaho vosita hisoblanadi. Chunki juda ko`p til materiallarini o`rganilayotgan til ichidagi hodisalarini ona tili ichidagi til hodisalariga taqqoslab ko`rish orqali o`rganish foydali natijalar beradi. Masalan, ingliz tilida mavjud bo`lgan predloglarning ishlatilishini, gaplarda so`z tartibi qoidalarini, leksik-semantik hodisalarini turli tizimdagi tillarda o`rganish yoki tillar va ularning yaruslari aro lingvistik kategoriyalarning ifodalanish usullarini muloxaza qilish kabi masalalarni tadqiq qilish ma`qul bo`ladi. Bunday lingvistik yondashish natijasida xorijiy til materiallarigina emas, balki ona tili materiali ham ongli ravishda o`rganiladi hamda chuqurlashtiriladi. Agar fikrning aniq berilishi, shartligi ko`zda tutilgan bo`lsa, tarjima o`rniga bir tilli matnlardan, ya`ni perifraza ishlatish matnlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi. Bir fikrni turli vositalar yordamida ifodalay olish qobiliyati ma`lum darajada bilim olinganligini ko`rsatadi. Kerakli fikrning boshqa so`zlar bilan ifodalanishi perifraza bo`lib, uni mukammal o`rganib olishdan avval yoki uning to`g`ri ekanligini tekshirib ko`rish uchun ham nazariy, ham amaliy tarjimadan foydalanish tavsiya etiladi. Fikrning

aniq berilishi shart bo'lgan hollarda, ya'ni turli shartnomalarni xorijiy firmalar bilan tuzishda, ular bilan axborot almashishda, aniq fanlarga oid materiallarni o'rganish jarayonida ikki tilli matnlarning, ya'ni tarjima matnlarining ahamiyati beqiyosdir, chunki har qanday sinonim yoki perifrazaning ham kutilgan ma'noni berishdagi aniqlik darajasida o'ziga xos kamchiligi bo'ladi, u fikrni aniq bera olmasligi ham mumkin.

Xorijiy tilda gapirishda ikki tomonlama qiyinchilikka duch keladi: u nima deyishini ham, o'sha fikrning qanday ifodalanishini ham o'ylashi kerak bo'ladi. Amaliy tarjima matnlarini izchillik bilan muntazam o'rganib borish esa ayniqsa til o'rganishning boshlang'ich bosqichlarida xorijiy nutqning avtomatlashuviga olib keladi. Bunday amaliy matnlarni o'rganish jarayonida til o'rganuvchining aqliy va tafakkur qobiliyati ham o'sadi, rivojlanadi. Til muammosini "osonlashtirish" va til "to'sig'i"ni yengish uchun so'z va konstruksiyalarning berilishi, tafakkur kuchini oshirish uchun illyustrativ test materiallarining berilishi tavsiya etiladi. Bunday illyustrativ materiallar sifatida yana ona tilidan xorijiy tilga, yoki aksincha, xorijiy tildan ona tiliga amaliy tarjima matnlarini olish kerak bo'ladi. Bunda faqat tilning grammatik tomonigina o'rganilmasdan, to'g'ri variantdagi tarjimani topish uchun aqliy tafakkur ham o'stiriladi. Va nihoyat, xorijiy tilga o'rgatishda ona tilidan va lingvo-tipologik tarjima uslubidan foydalanishning yana bir afzallik tomoni shundaki, bir tilli yoki tarjimasiz grammatik yoki leksik matnlar til o'rganuvchiga to'g'ri nutq namunalarini berib, tilni his qilishga o'rgatadi. Lekin tilni "his qilish" asosan ikki elementdan: xorijiy tilda o'z fikrini qanday ifoda qilish kerakligi va qanday ifoda qilmasligi kerakligidan iborat bo'ladi. Ikki tilli amaliy matnlar va faqat shunday matnlargina qonuniy ravishda ushbu vazifani amalga oshiradi.

Demak, ertangi kun yoshlarining qay darajada bilimli bo'lishi bugungi kun yoshlari - biz bitiruvchilarning egallagan bilim va malakalarimizga chambarchas bog'liq ekan. Shunday sharafla ma'suliyatni his qilgan holda biz bitiruvchilar ham o'rgangan chet tilimizni, egallagan bilim va ko'nikmalarimizning natijasi sifatida bitiruv malakaviy ish yozishga kirishmoqdamiz.

Mavzuni to'laqonli ochib berish maqsadida bir qancha ma'lumotlarni ko'zdan kechirib chiqdik, olimlarimizning ushbu mavzu bo'yicha fikrlari, qarashlarini o'rgandik va o'z fikr mulohazalarimiz asosida misollar yordamida o'z ishimizni yozishga harakat qildik.

Izlanishning dolzarbligi. Har qanday fanning taraqqiyoti unga xos bo'lgan analitik va sintetik tadqiqotlar nisbiy yetakchiligining tadrijiy almashinib borishidan iborat. Analitik bosqichning asosiy maqsadi o'rganish ob'yektini qismlarga ajratib o'rganish bo'lsa, sintetik talqin muayyan bosqich darajasida o'rganilgan qismlarni butunga birlashtiradi. Analitik va sintetik tadqiqotlarni keskin chegaralab bo'lmaydi. Zero, qismlar o'rganilayotganda butunga asoslaniladi, butun tadqiqotida qismlar nazarda tutiladi. Shuning uchun analitik bosqich sintetik bosqichni, sintetik bosqich analitik bosqichni doimo taqozo etadi, lekin bulardan biri muayyan tadqiqotda nisbiy yetakchilik qiladi va asosiy ilmiy maqsad unga qaratiladi. Aslida ushbu bilish yo'llari (induksiya, deduksiya) asosida qism va butunning muhim belgilari aniqlanadi hamda tadqiqot ob'yektining mohiyati bosqichma-bosqich ochilaveradi. Ingliz tilidagi "em-" prefiksli yasama leksemalarni o'zbek tili bilan qiyoslab o'rganish, hozirgi kunda tilshunos olimlar o'rtasida muhim masalalardan biriga aylangan. Buning asosiy sababi ingliz tilidagi yasama leksemalar bilan o'zbek tilidagi yasama leksemalar o'rtasida juda katta farqlar mavjudligidir va mazkur mavzuni yetarlicha qiyoslab o'rgatilmaganligidir.

Izlanishning maqsadi. Ingliz va o'zbek tillarida mazkur sohada ko'plab izlanishlar olib borilgan bo'lsada, biz taqdim etayotgan mavzuni ingliz va o'zbek tillarida qiyoslab, ularning lingvodidaktik jihatlarini ko'rsatib o'tishni maqsad qildik. Olingan ma'lumotlar qiyoslanib, ular asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Izlanishning vazifasi. Ingliz tilida "em-" prefiksli yasama leksemalarni topish va ularni o'zbek tilidagi muqobillari bilan qiyoslash.

Izlanishning predmeti. Ingliz va o'zbek tillaridagi yasama leksemalar.

Izlanishnig ob'ekti. Ingliz va o'zbek tillaridagi "em-" prefiksli yasama

leksemalar hisoblanadi.

Izlanishning metodi. Bitiruv malakaviy ishini yozishda qiyosiy tahliliy metod, analiz va sintez, statistik metod, interfaol metodlaridan foydalandim.

Izlanishning metodologik asosi qilib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" haqidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar olindi. Shu kunga qadar mazkur mavzu yuzasidan juda ham ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Bunga misol qilib biz I.V.Arnold, R.S.Ginzburg, L.Barxudarov, B.Ilish, V.Kaushanskaya, V.Arakin va o'zbek olimlari J.Bo'ronov, G'.M.Hoshimov, O'.Hoshimov, S.Rahimov va boshqa olimlarning izlanishlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Izlanishning ilmiy yangiligi shundaki, ingliz tilidagi "em-" prefiksli yasama leksemalarning o'zbek tilidagi prefiksli yasama so'zlar bilan o'xshash va noo'xshash jihatlarini qiyoslanadi, hamda ushbu mavzuni o'qitish masalalariga e'tibor beriladi.

Izlanishning nazariy qiymati. Shuningdek nazariy jihatdan "em-" prefiksli yasama leksemalar tilshunoslikda eng muammolik tomonlaridan biri hisoblanadi, chunki ingliz va o'zbek tiliga prefiksli yasama leksemalarning ba'zilar boshqa tillardan kirib kelganligidir.

Izlanishlarning amaliy qiymati. Shuningdek olingan natijalar asosida ingliz tilidagi "em" prefiksli yasama leksemalarni o'zbek maktablarida o'qitish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish, tarjimada kelib chiqadigan muammolarni bartaraf etishdan iborat.

Izlanishning natijalari. "em-" prefiksli yasama leksemalarni umumiy tilshunoslikda, qiyosiy tipologiyada, tarjimashunoslikda va akademik litseylarda, kollejlarda, oliy o'quv yurtlarida qo'llanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Izlanishning umumiy mazmuni. Ishning kirish qismida mamlakatimizda mustaqillikdan so`ng ta`lim jarayoniga bo`lgan munosabat, bu sohada amalga oshirilgan chora-tadbirlar, prezidentimiz I.A.Karimovning ta`lim sohasiga doir qabul qilgan qarorlariga to`xtalib o`tamiz. Qolaversa, mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, metodlari, nazariy va amaliy qiymati, kutilayotgan natija, tarkibiy qismi va umumiy mazmuni haqida gap boradi.

Birinchi bobda ingliz tilida prefiksli yasama leksemalar va bu haqidagi olimlarning turli fikr-qarashlari yoritiladi. Dastlab leksema nima ekanligi so`ngra prefiksli yasama leksemaning yasalish jarayoni to`grisida to`xtalamiz.

Ikkinchi bobda ingliz tilidagi "em-" prefiksli yasama leksemalar hamda ularning o`zbek tilidagi muqobillari, tarjima qilish jarayonidagi qiyosiy tahliliga va o`zbek tilidagi o`xshash va noo`xshash jihatlariga to`xtalamiz. Misollar bilan izohlab berishga, tushuntirishga harakat qilamiz.

Uchinchi bobda ingliz tilidagi "em-" prefiksli yasama leksemalarning o`zbek tiliga tarjima qilish va o`qitishga doir masalalar hamda metodik tavsiyalar aks ettiriladi. Qolaversa, ushbu mavzuni o`qitish bo`yicha mashqlar ko`rsatib o`tiladi. Beriladigan ma`lumotlar misollar orqali izohlab beriladi.

Xulosada izlanish bo`yicha qilingan ishlarning natijalari yoritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatida izlanishni yoritishda qo`llanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar ro`yxati beriladi.

Birinchi bob. Hozirgi zamon tilshunosligida yasama leksemalarning umumiy nazariyasi

1.1. Hozirgi zamon tilshunosligida yasama leksemalar umumiy nazariyasi

Umumiy va xususiy tilshunoslikning eng asosiy tushunchalaridan biri bo'lmish so'z (leksema, leksika) haligacha o'zining aniq ilmiy talqinini topgan emas. Leksema tilshunoslikning eng muhim va markaziy tushunchalaridan biri bo'lsa ham, uning mazmun va chegarasi hozirgacha aniq belgilangan, deb bo'lmaydi. Bunda nazariy tilshunoslikda hukm surib kelayotgan qator munozarali masalalardan tashqari, o'zbek tilshunosligida leksema va so'z atamasining hozirgacha yonma-yon qo'llanayotganligi va leksemani lisoniy sath birligi atamasi, so'zni nutqiy sath birligi sifatida qarashga intilish kabi ziddiyatli nuqtai nazarlar yashab kelayotganligini alohida ta'kidlash lozim.

So'zning ta'rifi va tavsifiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy manbalarni o'rganish, uning qandaydir «normal», «dinamik» harakatdagi birliklar – so'z birikmasi va gapdan farqlanuvchi statik (turg'un, o'zgarmas) birlik sifatida talqin qilish ustuvor ekanligini ko'rsatdi.[5;38]

Bu ta'rifda, bir tomondan tub va yasama so'zlar o'zaro farqlanmagan bo'lsa, ikkinchi tomondan so'z yasalishining *jarayon* ekanligi, binobarin, yasama so'z dinamik harakatning hosilasi ekanligi inobatga olinmagan ko'rinadi. Zero, yasama so'z nutq vaziyati talabi va ehtiyojiga ko'ra yuzaga keladigan nomlashning alohida turidir. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, so'z ayni paytda ham statik va ham dinamik harakat hosilasidir. Bu tezis so'z tilning asosiy birligi degan nazariyani inkor qilmaydi, aksincha, bu «asosiylik nimada namoyon bo'lishini muayyanlashtiradi».

Leksema va so'z. Nazariy yondashuvda leksik sath birligi tilshunoslikda *leksema* atamasi bilan nomlanadi. Leksema tilshunoslikning eng muhim va markaziy tushunchasidan biri bo'lsa ham, uning mazmun va chegarasi hozirgacha aniq belgilangan, deb bo'lmaydi.

Tilshunoslikda leksema va uning lisoniy tizimda tutgan o'rnini masalasidagi murakkab va chigal muammodan biri - leksemaning til struktur birligi bo'la olish yoki olmasligidir. Ko'plab tilshunoslar tilning struktur birliklarini sanar ekan, fonema, morfema va konstruksiya bilan cheklanib, leksemani tilning alohida qurilish birligi emas, balki morfemaning bir ko'rinishi sifatida qaraydi. Leksemani morfema orqali ta'riflash, o'z-o'zidan, lisoniy qurilishda uning alohida, mustaqil o'rnini yo'qligiga ishora qiladi. Holbuki, leksema ko'p hollarda, jumladan, V.V.Vinogradov ta'kidlanganidek, leksika va grammatikaning asosiy birligi sifatida qaraladi. Agar leksemaga shunday yondashilsa, tilning asosiy yarusi — leksik sath ham o'z mustaqilligidan mahrum bo'lib, morfemik sathning tarkibiy qismi mavqeida bo'la oladi, xolos. Bu kabi holatlar tilshunoslar oldiga leksemaning til tizimida tutgan o'rnini belgilash va asoslash vazifasini qo'yimoqda.

Professor G'.M. Hoshimovning "Comparative Typology " kitobida leksema va so'z yasaliishi haqida ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan. Leksema bo'linmas butun bir til birligi hisoblanib, u tilshunoslikda o'zining shakli, ma'nosi, va vazifasi bilan harakterlanadi. Tilshunoslikda so'z tuzilishini quyidagicha izohlaydi: tub morfemalar va affiksli morfemalarga bo'linadi.

Masalan: <i>root morpheme</i>	<i>affixal morpheme</i>
<i>home</i>	<i>homeless</i>
<i>sad</i>	<i>sadness</i> [6;59]

Yevropa tilshunosligida leksemaga morfema orqali ta'rif berilib, u «komevaya morfema» (o'zak morfema) sifatida qaraladi. O'zbek tilshunosligida ham leksema morfemaning bir ko'rinishi sifatida e'tirof etiladi. Biroq turli qurilishli tillarda leksema va morfema munosabatida farqli holatlar mavjud. Ma'lumki, agglyutinatív va flektiv tillardagi o'zakning keskin farqlanishi tilshunoslikka kirish kursiga doir barcha darslik va qo'llanmalarda mufassal sharhlangan. Ularda ta'kidlanishicha, agglyutinatív (masalan, rus, arab) tillardagi o'zak har doim so'z yasovchi yoki grammatik shakldan xoli tasavvur qilinmaydi va ma'no anglatmaydi. Shuning uchun mazkur tillarga o'zakni morfemalarning bir turi sifatida qarash va shu asosda faqat o'zakdan iborat, tarixiy yasamaligini yo'qotgan o'zak leksemalarni

mustaqil qo'llanishga ega bo'lmagan morfemaning bir ko'rinishi sifatida baholash xos va shu xususiyat bilan flektiv til agglyutinativ tildan farqlanib turadi.

Leksema lisoniy birlik bo'lsa, so'z uning nutqiy voqelanishi, nutqiy birlik. Shuning uchun leksema barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan tayyorlik, umumiylik, majburiylik kabi xossalarga, so'z esa nutqiy birliklarning tayyor emaslik, individuallik, ixtiyoriylik belgilariga ega.

Leksemaning tayyorligi va so'zning tayyor emasligini dalillovchi asosiy belgidan biri - uning nutqda namoyon bo'lishi uchun har doim tayyor turishi, so'zlovchi uni faqat ishga solishi. Ko'rinadiki, leksema ma'lum bir tilda so'zlashuvchi ongida shakl va mazmunning yaxlitligi sifatida nutqqa chiqishga shay bo'lib turadi, ma'lum bir qonuniyat asosida, so'z yasash qolipi asosida nutq jarayonida hosil qilinmaydi

Leksema so'z sifatida voqelanganda, o'zining bir qirrasinigina olib chiqadi. So'zlovchi leksemani so'z sifatida nutqqa chiqarganda, unga morfologik, sintaktik, uslubiy jihatdan ishlov beradi. So'z so'zlovchi tomonidan leksema asosida uning nutq maqsadiga mos ravishda tayyorlanadi. Masalan, *Men qiziq, sarguzasht kitoblarni sevaman* gapidagi *kitoblarni* so'zini olaylik. Undagi nutqiy lug'aviy ma'no uchun *kitob* leksemasi asos bo'lgan. Biroq leksemaning fonetik qiyofasi (ya'ni tovushlar), morfologik belgilari (ko'plik, tushum kelishigi), sintaktik vazifasi (so'z kengaytiruvchisi, tobe a'zo, to'ldiruvchi ekanligi) kabilar so'zlovchining individual sa'y-harakati asosida yuzaga keltirildi. *kitob* leksemasi ongimizda «varaqdan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo'lyozma holdagi, davriy bo'lmagan o'quv quroli» va «yirik hajmli asarning qismi» kabi ikkita sememasi bilan tayyor va barqaror holatda turadi. Yuqoridagi gapda (nutqda) uning bir sememasi yuzaga chiqqan. Ushbu leksemaning ongimizda birikuv imkoniyatlari juda kengdir. Bu gapda u *qiziq, sarguzasht* so'zlarinigina biriktirgan. Boshqa valentlik o'rinlari bo'sh qolgan. Shuningdek, sememadagi «bosma» semasigina yuzaga chiqqan bo'lib, «qo'lyozma holdagi» semasi voqelanmagan. Leksemaning sememk imkoniyatida kitobning qandayligi, masalan, badiiyligi yoki ilmiyligi belgilanmaydi. Lekin u badiiy yoki ilmiy bo'lishi mumkin. So'zlovchi esa

yuqoridagi so'zda uning badiiyligini bo'rttirgan. Demak, leksema keng ma'noli bo'lib, so'zlovchi so'zda uning ma'lum bir qirrasinigina yuzaga chiqaradi. Lekin so'z so'zlovchi tomonidan boshqa jihatdan boyitiladi. Ya'ni aytilganidek, u fonetik, morfemik, sintaktik, uslubiy tomondan «to'yintiriladi».

Leksema qaysi usul bilan hosil qilinmasin, yangi leksema yuzaga kelganidan keyin u til birligiga aylanadi; bunday til birligi hosil bo'lish jarayoni yakunlanganidan keyingi tahlil til birligining ichki tuzilishini tahlil qilish bo'ladi. Yangi leksema yuzaga kelishi doimiy jarayon ekanidan qat'i nazar, hosila leksemalarning ko'p qismi til taraqqiyotining o'tmish bosqichiga, kechagi kuniga mansub bo'ladi. Shunga ko'ra, leksematik tahlil (leksema tarkibini tahlil qilish) asli tarixan yondashib amalga oshiriladi; demak, so'z yasalishi (leksema hosil bo'lishi) bahsi asli tarixiy leksikologiyaga qarashli. Qanday usul bilan yuzaga kelmasin, hosila til birligi sifatida leksemaga teng bo'ladi; unga grammatik tavsif qo'shilganidan keyin leksema shaklga tenglashadi. Demak, hosila leksemaga teng bo'lishini hisobga olib so'z yasalishi haqida emas, leksema hosil bo'lishi haqida gapirish kerak. Leksema hosil qilish usullaridan faqat biriga – affiksatsiyaga nisbatan yasalar haqida (yasalar asosi va yasovchi haqida) gapirish mumkin. Demak, so'z yasalishi (asli leksema yasalishi) yangi leksik birlik yuzaga kelishining faqat bir turiga nom bo'la oladi; boshqa turlarini ham qamrab olsak, keng tushunchadan – *leksema hosil qilish* tushunchasidan foydalanish to'g'ri. Hosila leksema ma'lum bir so'z turkumga mansub bo'ladi. Yangi leksema hosil qilish barcha so'z turkumlarda voqe bo'lavermaydi.

Nutqiy yasama so'zlarning lisoniy sathga ko'tarilishi bir necha bosqichda kechadi. Ularni nutqdan lisonga siljishi, lisoniylashishi darajasiga ko'ra quyidagicha tartiblash mumkin:

- 1) ixtisoslashgan leksemalar;
- 2) soddalashgan leksemalar;
- 3) tublashgan leksemalar.

Ixtisoslashgan leksemalar nutqiy yasama so'zlar lisoniylashuvining eng quyi darajasidir. Ixtisoslashgan leksemalar yasamaligini yo'qotmagan, ya'ni o'zida

qolipning shakliy tomoni izlarini saqlagan, biroq ma'noviy tomondan qolipdan uzilgan, ya'ni ma'nosini qolipning o'ng (mazmuniy) tomonidan keltirib chiqarish imkoni bo'lmagan, toraygan ma'noli leksemalardir. Masalan ishchi (worker), leksemi «zavod yoki fabrikalarda ishlovchi, o'rta ma'lumotli mutaxassis» ma'nosiga ega bo'lib, u [ot]+[chi] qolipi hosilasidir. Qolip hosilasi sifatida u qolipning chap tomoni xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan: Chunki ishchi leksemasining shakliy tomoni, ya'ni nomemasida qolipning [ot+chi] umumiyliği zarrasi, ko'rinishi voqealangan. Leksema sememasi esa «shu otdan anglashilgan narsa bilan shug'ullanuvchi shaxs» mohiyati ko'rinishiga emas, balki uning toraygan, ma'lum bir ixtisosni anglatuvchi ko'rinishi holatiga ega bo'lib qolgan.

Soddalashgan leksemalar yasama so'zlar lisoniylashuvining yanada yuqoriroq bosqichidir. Soddalashish bu ma'lum bir so'z yasash qolipining hosilasida o'zak va qo'shimchaning o'zaro birikib ajralmas holga kelishi, so'zshakldagi grammatik shakllarning qotib qolishi natijasida yangi ma'no ifodalashidir. O'zbek tilidagi oldin, keyin, tashqari, ichkari, yuqori kabi yuzlab so'zlar soddalashgan yasama so'zlar - leksemalardir.

Tublashgan leksemalar shunday leksemalashgan yasama so'zlarki, ularning yasalishini, tarkibini etimologik ma'lumotga ega bo'lmasdan aniqlab bo'lmaydi. Masalan, sin fe'lining o'zagi si, tingla fe'lining o'zagi ting ekanligini til tarixi bo'yicha chuqur ma'lumotga ega bo'lmasdan bilib bo'lmaydi.

Demak, ma'lum bo'ladiki, tilda leksema yasash hodisasi yo'q. Balki yasama so'zlarning, nutqiy hosilalarning lisoniylashuvi, leksemalashuvi hodisasi mavjud.

Til haqidagi fanlar sistemasida so'z yasalishi nazariyasining o'rni masalasi uzoq vaqtlardan beri barcha tilshunoslar uchun bahsli munozara manbai bo'lib kelmoqda. So'z yasalishi tilshunoslar tomonidan goh morfologiya sohasiga, goh leksikologiya sohasiga kiritilib kelgan.

Tilshunoslikda so'z yasalishining o'rni haqida V.V.Vinogradov tomonidan aytilgan fikr ibratlidir. Unga ko'ra, so'z yasalishi tilshunoslik fanida salmoqli ahamiyat kasb etar ekan, u leksikologiya - tilning lug'at tarkibi haqidagi fan bilan, o'z o'rnida grammatika bilan yaqinlashar ekan - shakl yasash ta'limoti hamda so'z

birikmasi sintaksisi bilan ham bo'g'liqdir. Bunday nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlovchilar soni kun sayin ortib bormoqda.

Hozirgi paytda so'z yasalishi nazariyasini mustaqil fan sifatida rasmiylashtirish jarayoni bu sohadagi ba'zi tushunchalarga yangicha yondashish, ba'zi so'z yasovchi vositalarni uzil-kesil tasdiqlash va ushbu sohaga tegishli tahlil metodlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Har bir tilda so'z yasashning usullari va vositalariga yetarlicha e'tibor qaratilsa-da, mazkur masalani qiyosiy o'rganish nisbatan kam ishlangan. Hatto yaxshi o'rganilgan tillarda ham so'z yasovchi vositalar atroflicha o'z ifodasini topmagan. Bundan tashqari, bu sohada qilingan ishlar turli tadqiqot metodlarini qo'llash orqali, har xil maqsadni ko'zlagan va o'rganilayotgan hodisaga turlicha yondashgan holda amalga oshirilganligi ma'lum tillar guruhi uchun tadqiqot natijalarini qiyoslash imkoniyatini qiyinlashtiradi yoki umuman iloji bo'lmaydi. Tipologik tahlil muammolari, asosan, turli tillarning morfologik xususiyatlarini tadqiq etishda vujudga keladi. Til strukturasining boshqa tomonlari bu nuqtai nazardan nisbatan kam o'rganilgan. Masalan, leksika va sememka sohasida universal hodisalar tadqiqi birinchi bosqichda turibdi. "Konkret leksik tarkibning mavjud bo'lishiga qaramay, bir necha tillar guruhiga xos bo'lgan umumiy leksik-sememk modellar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash kerak. Agar mavjud bo'lsa, ularning qonuniyatlari va xususiyatlariga oydinlik kiritish kerak bo'ladi" - deydi M.M.Makovskiy. Tipologik tadqiqotning asosiy vazifasi - har bir alohida olingan til sistemasi uchun umumiy bo'lgan modellar munosabatini o'rnatishdan iboratdir. So'z yasalishini ko'rib chiqish davomida, bu sohada tillarning tipologik o'xshashligi yaqqol ko'zga tashlanganidek, ularning farqlari ham shunchalik aniq-ravshan ko'rinib turishining guvohi bo'lish mumkin. Bu fikrning tasdig'i sifatida beshta slavyan tillari ustida V.A.Nikonov va uchta german tillari ustida olib borilgan V.V.Gurevich tadqiqot natijalarini keltirish mumkin. Ingliz va rus tillari hind-ovrupa tillariga mansub bo'lganliklari uchun ularning so'z yasashda ko'pgina o'xshash xususiyatlarga ega bo'lishi tabiiydir. Ammo shu bilan birga, yuqorida aytilgan tillarning alohida so'z yasovchi vositalar o'rtasidagi munosabatlarning turli

xususiyatlarga egaligi, o'ziga xos so'z yasash usullari mavjudligi hamda har bir tilda so'z yasashning u yoki bu usullarining mahsuldorligi darajasi bilan namoyon bo'ladigan individualligi bilan ajralib turadi.

Leksema, so'z shakl, yasama so'z sifatida nutqda yuzaga chiqadi. Leksemani grammatik shakllanish uni so'zshakl qiyofasiga kiritish (so'z va so'zshakl sinonim atama, chunki nutqda grammatik shakllanmagan, so'z shaklga aylanmagan so'z yo'q) va undan nutqiy maqsad uchun ma'lum qoliplar asosida yasama so'zlar hosil qilish so'zlovchining «so'z tayyorlashi»dir.

Ma'lumki, yasama so'zning ayrimlari nutq jarayonida yasaladi, ayrimlari esa bir vaqtlar yasalgan, bugungi kunda hammamiz uchun tayyor holga kelib, tub leksema qatoriga chiqib olgan. Quyidagi uchta birlikni qiyoslaymiz:

kitob

kitobxon

kitobchi

Bu birlikdan ikkitasi *kitob* va *kitobxon* ongimizda tayyor. *Kitobxon* leksemasi aslida yasama, ammo bugungi kunda u ongimizda leksema holida mavjud. Ammo *kitobchi* so'zi qandaydir g'ayrioddiylikka ega. Chunki u nutqiy yasama so'z bolib, leksema sirasiga o'tmagan. *Kitobchi* so'zi ham, *ishchi* (worker, rabochiy) so'zi ham aslida[ot Q chi] ot anglatmishi bilan shug'ullanuvchi shaxs oti qolipi hosilasi. Ammo *ishchi* leksemasi bu qolipdan uzoqlashib, undagi o'zak va qo'shimcha qotgan holga kelgan, ya'ni bu leksema hozir yuz berayotgan nutqiy jarayonda yasalmagan. *Kitobchi* so'zi esa mazkur qolip asosidagi, undan nutq jarayonida hosil bo'lgan nutqiy hosila. Demak, ayrim yasama so'z qolipdan chiqib, davr o'tishi bilan leksemalashib, tayyor holga kelib qoladi. [7;79-83b]

So'z yasash haqidagi ta'limot tilshunoslikning predmetlaridan biridir. Yasama so'z boshqa tillardagi kabi ingliz tilida ham juda ko'p qo'llaniladi. So'z yasovchi vositalar yordamida har bir tilda minglab yangi so'zlar barpo bo'ladi. Ular esa tilning lug'at boyligining oshirishda juda muhim o'rin egallaydi. So'z yasalishi orqali hosil bo'lgan yangi so'zlar tilning lug'at tarkibidagi boshqa

so'zlardan tubdan farq qiladi, ya'ni ma'nosini o'zgartiradi. Har bir yasalgan yangi so'zlar dastlab lug'atda mavjud bo'lgan vositalar orqali so'zning morfologik ko'rinishini o'zgartirish yo'li bilan hosil bo'ladi. So'z yasalishi tilshunoslikning alohida bo'limidir. U so'z yasalishi, uning diaxron va sinxron turlari, so'z yasash usullari kabi masalalar bilan shug'ullanadi. So'z yasash termini tilshunoslikda ikki ma'noda: so'zlar qanday paydo bo'lishi haqidagi fan hamda yangi so'zlarning paydo bo'lish qoida va usullari yig'indisi ma'nosida qo'llaniladi.

So'z yasash yangi so'z hosil qilishdir. So'z yasash keyingi vaqtlargacha tilshunoslikning "Morfologiya" qismida qarab kelindi. Tilshunoslik nazariyasi taraqqiyoti uning tilshunoslik alohida sohasi deb qarashni taqozo qildi. Shunga ko'ra keyingi yillarda nashr qilingan adabiyotlarda "So'z yasash" tilshunoslikning mustaqil bir bo'limi sifatida talqin qilina boshladi. So'z yasash tilshunoslikning yangi so'z hosil qilishning qonun qoidalari, modellari va usullari haqidagi bo'limidir.[8;102]

So'z yasashning o'rganish obyekti so'zdir. So'z leksikologiyada ham grammatikada ham o'rganiladi, lekin leksikologiya va grammatika so'zga boshqacha yondashadi. Masalan, leksikologiyada so'z va uning ma'nosi, lug'at tarkibini qatlamlari, so'zlarning asosiy tiplari kabilar bo'lsa, morfologiyada esa so'z turkumlari, ularning grammatik formalari o'rganiladi. So'z yasash esa alohida soha sifatida yangi so'zlarning hosil bo'lishi masalalari bilan shug'ullanadi. Tilshunoslikning bu bo'limlari so'zni har tomondan o'rganib bir-birini to'ldiradi. Bu jihatdan ular o'zaro bog'liqlikdir.

Yasalma so'zlarning so'z yasalishi strukturasi hamda har bir tilga xos so'z yasash vositalari sistemasi tarixiy o'zgaruvchandir. Shuning uchun ham diaxronik so'z yasalishi bilan sinxronik so'z yasalishi farqlanadi.

So'z yasalishi sof nutqiy hodisa, nutqiy jarayondir. Biroq uning lisoniy asoslari bor. Shu sababli so'z yasalishi ham lison va nutqqa birday daxldor hodisadir.

So'z yasalishi lingvistik termin sifatida ikki ma'nolidir:

a) so'z yasash jarayoni atamasi;

b) ushbu jarayonni o'rganuvchi soha.

So'z yasash deganda qanday usul bilan bo'lsa-da, yangi so'z hosil qilish tushunilavermaydi. Masalan, so'z yangi ma'no kasb etishi natijasida yangi so'z paydo bo'lishi mumkin. Deylik, *ishbilarmon* so'zi yangi ma'no kasb etdi. Biroq bu yerda yangi so'z yasalishi yo'q. Demak, so'z yasalishi, yasama va yangi ma'no kasb etgan so'zlarning leksemalashuvi hodisalarini farqlash lozim.

So'z yasalishi ham til taraqqiyoti natijasida tarixiylik va zamonaviylikka daxldor bo'ladi. Shu boisdan tarixiy va sinxron so'z yasalishini farqlash lozim.

Diaxronik so'z yasalishi til taraqqiyotining ma'lum davrda so'zlar qanday hosil bo'lganligini, uning dastlabki holati so'z yasalishi strukturasida bo'lgan o'zgarishlarni o'rgansa, sinxronik so'z yasalishi til taraqqiyotining hozirgi bosqichida so'z yasash sistemasini o'rganadi. Hozirgi so'z yasalishida yasama so'z bilan derivatsion (so'z yasash) qolip orasida aloqa mavjud bo'lib, qolipning shakli va mazmuniy tomoni hosila so'zda o'z izlarini qoldirgan bo'ladi. *kitobchi* yasama so'zi qolipidagi tenglik alomatining chap (shakliy) va o'ng (mazmuniy) tomoni izlari shundoq ko'rinib turibdi.

Tarixiy so'z yasalishida yasama so'zning shakli va ma'nosiga mos qolip mavjud bo'lmaydi. Bu maxsus tekshirishlar natijasida aniqlanadi. Masalan, *qishloq*, *ovloq* so'zlarining ma'nosini ularning tashkil etuvchilari va derivatsion qoliplari asosida keltirib chiqarib bo'lmaydi. Chunki ular tarixiy yasalmalardir. *Qorovul*, *yasovul*, *silliq* so'zlarida ham shu hol kuzatiladi.

So'z yasash (derivation) qoliplari haqida. Har qanday so'z so'z yasash qoliplari asosida hosil qilinadi. Hosila lisoniylashib, o'z qolipidan uzilib ketsa ham, unda bilinar-bilinmas qolip bilan (agar qolip yashovchan bo'lsa) bog'lanishlar baribir saqlanib qoladi.

So'z yasash qolipi ikki jihatdan iborat bo'ladi:

- a) qolipning shakliy tomoni;
- b) qolipning mazmuniy tomoni.

Yasama so'zda ana shu ikki jihat tajallilanadi. Yasalma shaklan va mazmunan ana shu qolipga muvofiq kelsa, uni shu qolip hosilasi sifatida qarash mumkin.

Masalan, *kitobchi* so'zida mazkur qolipning izlari bor. Lekin *xabarchi* so'zida qolipning mazmuniy tomoni aks etmagan. Demak, bu leksema ushbu qolip mahsuli emas.

So'z yasash qolipining shakliy tomoni ikki qismdan tashkil topadi: *yasovchi asos* va *yasovchi vosita*. Masalan, *gulchi* [gul bilan shug'ullanuvchi shaxs oti] qolipining shakliy qismi bo'lgan [otQchi] ning *ot* qismi *yasovchi asos*, *-chi* qismi esa *yasovchi vosita*dir. Biz so'z yasashining va ularning klassifikatsiyasini Smirnitkiyning kitobida kuzatamiz. So'z yasashi –so'zlarning tizimi va tilda yangi so'zlarning yaratilish jarayonidir. Masalan: **driver** so'zi **V+er** qolipida yasalgan va yasama ot hosil bo'lgan.

Qolipning *yasovchi asosi*, albatta, mustaqil so'z, *yasovchi vosita* qismi esa so'z ham, qo'shimcha ham bo'lishi mumkin. Masalan, qo'shma, juft so'z yasash qoliplarida asos ham, vosita ham so'zdir.[9;152-160b]

Barcha til birliklari kabi yasama so'zlar ham lisoniy va nutqiy sathlarga daxldor bo'ladi. Boshqacha aytganda, yasama so'zlar nutqiy ham, lisoniy ham bo'lishi mumkin.

Yasama so'zlar nutqiy birlik ham, lisoniy birlik ham bo'lishi mumkin. Tilda leksema yasash hodisasi yo'q, balki yasama so'zlarning, nutqiy hosilalarning lisoniylashuvi, leksemalashuvi hodisasi mavjud.

Ayrim yasama so'zlar o'z qolipidan uziladi hamda ular tarkibidagi o'zak va *yasovchi qo'shimcha* aloqasi zichlashib, bunday yasama so'zlar o'zbek tili jamiyati a'zolari uchun tayyor holga keladi - leksemaga aylanadi.

So'z yasash usullari turli tillarda turlichadir. So'z yasashning grammatik (*affiksatsiya* va *so'z qo'shish usuli*) sememk, fonetik, konversya usullari ko'p tillarga xosdir. Bularning ishtiroki turli so'z turkumlarida turlichadir. Masalan, rus tilida *prefikatsiya* hamda *postfikatsiya* (*affiksatsiya ko'rinishlari*) ko'proq fe'llarga xos, *suffiksatsiya* va *so'z qo'shish usuli* ko'proq otlarga xos. O'zbek tilida *affiksatsiya* va *so'z qo'shish otlar* uchun xarakterlidir.

Odatda har bir yasalma binar, ya'ni ikki a'zoli bo'ladi: *asos* va *formant*. Birinchisi yasalma bilan bog'langan qism, ikkinchisi esa bundan farqlovchi

qismidir: *mehnatkash*. Bu soʻz ikki qismdan iborat : *mehnatkash* soʻzining sememkasi bilan bogʻliq boʻlgan qismi (mehnat) va va bu soʻzni farqlovchi qism (-kash).

Tilning soʻz yasash sistemasini klassifikatsiya qilishda soʻz yasash tiplari asosiy belgi qilib olinadi. Bunda soʻz turkumi va uning maʼnosi hisobga olinadi. Masalan: *ishchi, aʼlochi, ovchi, tarbiyachi, suvchi, baliqchi* kabilar soʻz yasashining bir tipini tashkil qilib, shaxs otlarini yasaydi. Soʻz yasash tiplarini izohlashda uning mahsuldor yoki kammahsul ekanligi ,maʼno va formasidagi oʻzgarishlar qoʻllanishdagi stilistik xususiyatlar hisobga olinadi.

Soʻz yasash turlari bilan soʻz yasash modellari koʻp hollarda sinonim siatida qoʻllaniladi, lekin ular oʻzaro farq qiladi. Soʻz yasash modeli konkret leksema yasash namunasi (qolipi) boʻlsa, soʻz yasash tiplari faqat model koʻrinishida emas, uning tipikligi mahsuldor yoki kammahsul ekanligi kabi masalalarni oʻz ichiga oladi. Demak, soʻz yasash tiplari terminining maʼnosi soʻz yasash modellari termining maʼnosiga qaraganda keng.

Baʼzan bir oʻzakdan bir qancha soʻzlar yasaladi: *oʻr (feʼl) - oʻroq (ot), oʻroqchi (ot), oʻroqchilik (ot)*. Bunda *oʻr* soʻzi bir qancha soʻzlarning yasashi uchun asos boʻlgan. Bunday soʻzlar soʻz yasash uyasi deyiladi. Soʻz yasash uyasi tematik xarakterda boʻlishi ham mumkin. Masalan: toshloq, qumloq, oʻtloq kabi soʻzlar tematik qator hosil qilib, oʻrin-joy otini anglatyapti.

Ingliz tilida soʻz yasashi deganda biz shu tilning oʻzida boʻlgan ichki imkoniyatlaridan foydalanib, yangi leksik birliklar, ingliz soʻzlari yasashni tushunamiz. Soʻz yasashining tutgan oʻrni tilshunoslikning har xil boʻlimlari oʻrtasida toʻla aniqlanmaganligi haqida yuqorida taʼkidlab oʻtdik va bu sohada quyidagi toʻrt xil fikrlar ham mavjud:

- 1) Soʻz yasashi grammatikaning mavzusi;
- 2) Soʻz yasashi leksikologiyaning mavzusi;
- 3) Soʻz yasashi ham grammatika, ham leksikologiya tomonidan oʻrganilishi kerak;
- 4) Soʻz yasashi tilshunoslikning mustaqil boʻlimi.

Yuqoridagi fikrlarning bir-biriga zidligi shundan dalolat berib turibdiki, soʻz yasalishi ham grammatika, ham leksikologiya bilan uzviy bogʻliqdir. Soʻz yasalishi tilshunoslikning deyarli hamma yaruslariga aloqadorligini aytib oʻtish kerak. Masalan, soʻzlarning maʼnolarini kengaytirish, konversiya, abbreviatura masalalari koʻproq leksikologiyada chuqurroq oʻrganilsa, kompozitsiya, shakl yasovchi morfemalarning soʻz yasovchi morfemalarga oʻtishi, soʻz yasalishining soʻz turkumlari bilan aloqalari masalalari koʻproq grammatikada oʻrganiladi. Affiksatsiya ham grammatika, ham leksikologiyaga teng aloqadordir. Tilshunoslikning turli yaruslari bilan aloqasiga tayanib soʻz yasalishi usullarini belgilash taxminan quyidagicha boʻlishi mumkin:

- Leksik –morfologik usul (affiksatsiya, konversiya);
- Leksik –sintaktik usul (kompozitsiya, reduplikatsiya);
- Leksik usul (maʼnolarini kengaytirish, abbreviatura);
- Leksik–fonetik usul (urgʻularni oʻzgartirish, ayrim tovushlarni oʻzgartirish).

Hozirgi zamon ingliz va rus tillari leksikasini boyituvchi eng mahsuldor usullardan biri – bu soʻz yasashning morfologik usulidir. Bu usul affikslar va soʻz qoʻshish yordamida hamda affikslarsiz soʻz yasash orqali amalga oshiriladi. Affikslarsiz soʻz yasashda tovushlar almashinuvi va soʻz yasash vositasi sifatida urgʻuni koʻchirish orqali amalga oshiriladi. Lekin soʻz yasashning bu usuli koʻp tarqalmagan. U ayniqsa feʼllardan va sifatlardan ot yasashda koʻproq kuzatiladi. Masalan ingliz tilida: to lose-loss, to bleed-blood, to live-life, to obʻject-ʻobject, to preʻsent-ʻpresent.[10;13-19b]

Affikslarsiz soʻz yasash usuliga ingliz tilida keng tarqalgan konversiyani, yaʼni berilgan oʻzakni soʻz oʻzgartirishning boshqa paradigmasiga koʻchirish orqali soʻz yasash usulini kiritish mumkin. Bunda yangi soʻzning sintaktik birikuvi oʻzgargani sababli konversiya soʻz yasashning morfologik-sintaktik usulini taqozo etadi. Konversiya yoʻli bilan yasalgan soʻzlarning koʻpchiligini feʼllar tashkil qiladi: chair - to chair, light - to light, free - to free, wet - to wet, down – to down va hokazo. Yuqorida keltirilgan misollardan feʼllar turli soʻz turkumlaridan, yaʼni

otlardan, sifatlardan va ravishlardan yasalishi mumkinligi ko‘rinib turibdi. Konversiya yordamida boshqa so‘z turkumlari, masalan, ot yasalishi mumkin: to run – run, to work – work, native – a native va hokazo. Konversiya hodisasi ingliz tilini rus tilidan ajratib turadigan uning xos xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Ko‘rib chiqilayotgan tillarda affiksatsiya va so‘z qo‘shish so‘z yasashda eng universal vositalar hisoblanadi. Affiksatsiya – bu o‘zakka u yoki bu so‘z yasovchi vositalarni qo‘shish orqali so‘z yasashdir. Affikslar yordamida so‘z yasashning uch turi mavjud:

- prefikslar yordamida (so‘zning boshiga qo‘shiladi);
- suffikslar yordamida (so‘zning oxiriga qo‘shiladi);
- infikslar yordamida (so‘zning o‘rtasiga qo‘shiladi).

1.2. Hozirgi zamon tilshunosligida prefiksli yasama leksemalar nazariyasi

Har bir yarusdagi tipologik forma uchun uning asosiy markeri bo'ladi. Bunday markerlar turli yaroslarda turlicha ifodalanadi. Morfologik va leksik yaroslarda tipologik formaning markeri vazifasini morfema bajaradi.

Morfema (morpheme) tildagi eng kichik ma'no anglatuvchi qism yoki o'zaro qo'shimcha distributsiyada turuvchi bir xil ma'noga ega bo'lgan allomorflar yig'indisidir. Morfemalar tildagi eng kichik birligi bo'lganligi sababli ular boshqa ma'no anglatuvchi bo'laklarga bo'linmaydi. Morfemalar so'z yasashdagi ro'lga ko'ra tub yoki o'zak morfemalarga (root morpheme) va affiksial morfemalar (affixial morpheme) ga bo'linadi.

Tub morfemalar asosan bir o'zakli so'zlardan iborat bo'lganligi sababli ko'pincha ular so'z morfemalar (word morpheme) deb ham ataladi. Masalan : man- odam, horse –ot, come –kelmoq, red –qizil va boshqalar.

Affiksial morfemalar asosan kategorial ma'noga ega bo'lib o'z navbatida ikkiga bo'linadi: a) so'z yasovchi affiksial morfemalar (functional morphemes); b) shakl yasovchi affiksial morfemalar (derivational affixial morphemes).

So'z yasovchi affiksial morfemalar boshqa o'zak yoki so'zlardan yangi lingivistik birlik (yangi so'z) yasash uchun xizmat qiladi. So'zlarning oldiga, ohiriga yoki o'rtasiga yoki qo'shilishiga kora affikslar: prefiks (prefix), suffiks (suffix) va infiks (infix) larga bo'linadi. Hozirgi ingliz tilidagi ilgarilari bor bo'lgan infikslar so'z negizining soddalashuvi natijasida keyinchalik o'zaklarga birlashib ketgan. So'z yasovchi affiksial morfemalarga misol qilib quyidagi prefiks va suffikslarni keltirish mumkin:

for –*forgive*, *forbid* –taqiqlamoq,
mis-misunderstand – noto'gri tushunmoq,
unhappy –baxtsiz,
intercourse –aloqa qilish, munosabatda bo'lish,
rewrite –qayta yozmoq,
-er writer –yozuvchi,
-dom freedom –ozodlik,

-hood boyhood-bolalik,
-ness goodness –yaxshilik,
-ship friendship –do'stlik,
-ic public –ommaviy,
-less useless –foydasiz,
ish –reddish –qizgish.

Dastlab hozirgi ingliz tilidagi prefiksatsiya va prefikslarning xarakterli belgilari to'g'risida ma'lumotlar berib o'tamiz.

Prefiksatsiya (prefixation). So'z negizining old tomoniga so'z yasovchi morfemalarni qo'shish orqali yangi so'z yasash *prefiksatsiya* deyiladi. Ingliz tilidagi prefikslar kelib chiqishiga ko'ra sof ingliz prefikslari va boshqa tillardan kirib kelgan prefikslarga bo'linadi:

a) *beatitude* –huzurlanish , maroqlanish; *behalf* –nom; *in my behalf* – nomidan kabi so'zlarni sof ingliz prefiksi yordamida yasalgan so'zlarga kiritamiz.

b) *acclaim* –gulduros qarsak bilan kutib olish, *accomplice*–sherik ,birga harakat qiluvchi, *circumscription* –chegaralash, chegara, *extra –judical* – norasmiy, *illusion* –illuziya, *intercourse* –aloqada bo'lish, muomala qilish, *interdict* –man qilmoq, to'xtatmoq, *postgraduate* –aspirant, *postponement* – kechiktirish, orqaga surish, *preaudience*–boshqalardan avval gapirish huquqi, *precontract* –avvaldan tuzilgan kontrakt, *reaction* –reaksiya, qayta ra'sir ko'rsatish, *reagent* –reaktiv, *recall* –qayta chaqirib olish, *semicircle* – yarim aylana, *semifinal* –yarim final, *subsoil* –pastki tuproq, qatlam, *superscription* –yozuv (tepasiga yozib qo'yish) address, *supertax* –oshiqcha kiringa qo'yilgan soliq, *transformation* –transformatsiya, *unicorn* –bir shoxli kabi so'zlar lotin tilida kirib kelgan.

c) *embiotic* –embiotik, *emfascist* –emfashist, *autobiography* – avtobiografiya, *autograph* –avtograf, *diameter* –diametr, *dialogue* –dialog, *epigram* –epigramma, *hierarchy*–ierarxiya, *hyperbole* –giperbola, *hypothesis* –gipoteza, *monogram* –monogramma, *monograph*–monografiya,

parachronism –paraxronizm, xronologik xato, *paragraph* –paragraf, polygot –poliglot, ko'p til biluvchi, *polisemy* –ko'p ma'nolilik, *sympathy* –yoqtirish, *symphony* –simfoniya, *syncope* –sinkopa, *sylogism* –sillogizm kabi so'zlar grek tilidan olingan prefikslar yordamida yasalgan.

Bu so'zlarda prefiks tarzida berilgan morfemalarning ko'plari so'zning o'zagiga qo'shilib, soddalaşgan (fused) so'zlarni yasaydi. Yuqorida ko'rsatilgan prefikslar vositasida yasalgan so'zlarga misollar keltiramiz:

- ❖ They have advanced a number of *preconditions*.
- ❖ And on the strength of peccadilloes, reprehensive in a author, but excusable in a song, the Anglo –Saxon race is accused of prudishness, humbug, *pretentiousness*, deceit, cunning, and bad cocking (T.Hardy).
- ❖ With the exception of the trades folk, the preachers, and a few professional people, they were all directly in the employment of the Company. (A.Cronin).
- ❖ The relations have now assumed the character of stable division of labour and exchange of produce.
- ❖ There was a *breathless* inerclude. (A.Cronin).
- ❖ He hated *interference*.(Ibid).

Prefiksatsiyada suffiksatsiyadek o'zakka qo'shish orqali emas, balki so'z yasashda prefiks butun bir so'zga qo'shish orqali yangi so'z yasaladi. Prefikslar yordamida bir xil so'z turkumiga taalluqli bo'lgan yangi so'zlar yasaladi: otlardan otlar (policeman –ex-policeman), fe'llardan fe'llar (graduate –postgraduate) yasaladi va hokazo.

Agar suffiksatsiya ot so'z turkumiga tegishli bo'lgan so'zlarni yasashga xos bo'lsa, prefiksatsiya ingliz tilida ham, rus tilida ham fe'llarni yasashda mahsulдор vosita hisoblanadi. Pefiks yordamida yasalgan otlar va sifatlar soni juda kam.[11;35-37]

